

## O'RGATUVCHI VIDEO DARSLARNING YARATISHGA MO'ljALLANGAN DASTURIY TA'MINOT

*O'roqova Sharofat Bahodir qizi-Nizomiy  
nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Qayimova Durdona Baxodir qizi-Nizomiy  
nomidagi TDPU Axborot tizimlari va  
texnologiyalari 2-bosqich talabasi*

O'rgatuvchi video darslarni yaratishga mo'ljallangan bir qancha dasturlar mavjud. Ular yordamida foydalanuvchilar tomonidan iliq kutb olinadigan hamda keng yoritilgan video darslarni ishlab chiqishimiz mumkin. Foydalanuvchilarning bilish darajalari va ularning talablaridan kelib chiqqan holda video darslarni yaratish uchun dastur tanlaymiz. Biz ham bir qancha dasturlarni tahlil qilishni boshlaymiz. Quyida video darslar tayyorlash uchun qulay bo'lgan dasturlarning ro'yxatini keltirilgan.

Dastur nomi	Ishlab chiqaruvchi	Qo'llash tili
SmartCapture	DeskSoft	English
ActivePresenter	BinaryNow, Inc.	English, русский
SMRecorder	Video2Down	English
Weeny Free Video Recorder	Weeny Software	English
PremierPro	Adobe	Ko'p tilli, va. русский
Camtasia Studio	TechSmith Corporation	English
Movavi Screen Capture Studio	MOVAVI	Ko'p tilli, va. русский
Bandicam	Bandisoft	Ko'p tilli, va. русский

**Movavi** - bu rus tilidagi video muharriri bo'lib, u juda sodda interfeysga ega bo'lib, yaxshi xususiyatlarga ega.

Biz ushbu dasturni o'rnatdik va batafsil o'rganib chiqdik. Dasturdan izlanishda foydalanish 7 kun davom etadi. Keyin uni faollashtirish kerak.

Batafsil o'rganib chiqqandan so'ng, biz shunchaki videoni kesishga imkon beradigan oddiy dastur emasligini bilib olamiz. Movavi ko'plab afzalliklarga ega. Ularning asosiylari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu dastur 3D-ni qo'llab-quvvatlaydi va bizga monitor ekranidan video olish imkonini beradi.

Bu juda qulay "ish maydoni"ga ega. Ovozni qayta ishlash uchun audio muharririga kirishning hojati yo'q, chunki ovoz alohida trekda namoyon bo'ladi.

**SmartCapture** - bu dastur foydalanuvchi interfeysi aniq va tushunarli hamda turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan ekranni tasvirga olish dasturiy vositasidir. U to'rtburchaklar shaklidagi ekran maydonlarini, butun ob'ektlarni, qamrab olishi va videoga tanlangan standartga mos ravishda o'z ishini olib boradi. Olingan videolarni juda osonlik bilan qisqartirish mumkin va rang chuqurligini istalgan qiymatga o'zgartirish mumkin. videolarni ulashish, saqlash, buferga nusxalash, elektron pochta manziliga yoki istalgan video muharririga yuborish mumkin.

**Adobe Premiere Pro** - Adobe Systems kompaniyasi mahsuloti bo'lib, dinamik tasvirlarni, videolarni tahrirlash, montaj qilish, kompozitsiya yaratish, muharrirlash, animatsion montajlar qilish, maxsus effektlar yaratish, video roliklarni rangi, yorqinligini mo'tadillashtirish va shunga o'xshash illyuzion video roliklarni yaratish imkoniyatlariga ega bo'lgan dastur hisoblanadi.

Adobe Premiere Pro dasturini ancha keng tarqalgan After Effects dasturi bilan qiyoslashadi. Adobe Premiere Pro dasturi After Effectsga o'xshash bo'lsada, unga solishtirganda sifatli va keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Undan tashqari shu vazifani bajarishga yordam beruvchi Photoshop dasturi esa statik tasvirlar ustida ishlaydigan kuchli vositalardan hisoblansada, Adobe Premiere Pro va After Effects dasturlari dinamik tasvirlar (kino, roliklar, videokliplar) bilan ishlash imkonini beradi.

Hozirda bu dastur yordamida kliplar, animatsiyalar, reklama roliklari, televideniya teleko'rsatuvlar, kinolar, prezentasiyalar ishlanmoqda. Adobe Premiere Pro dasturi media trekli dastur hisoblanadi. Unda ham Adobe Photoshop

kabi bir necha qatlamlar bilan ishlash mumkin. Bu qatlamlar turli rasm, musiqa, video, animatsiya, matn ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, musiqasiz biror rolikni, videoni, kinoni tasavvur qilish qiyin. Har qanday professional studiya mehnat faoliyatida albatta biror musiqadan foydalaniladi.

Adobe Premiere Pro dasturi imkoniyatlaridan eng muhimlari quyidagicha keltirilgan:

*Mukammallashtirilgan foydalanuvchi interfeysi* - Adobe Premiere Pro dasturini Adobe kompaniyasining videofragmentlarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan boshqa dasturlari bilan solishtirganda, interfeys va palitralardan foydalanish ancha qulay. Yangi interfeys ekran bo‘shlig‘idan samarali foydalanishni ta’minlaydi va foydalanuvchi ishini osonlashtiradi. Dasturda ma’lum sinfdagi vazifalarni bajarish uchun o‘rnatilgan ishchi maydonlar orasida o‘tish mumkin.

*Animatsiyalarning yaxshilangan paradigmasi* - Adobe Premiere Pro dasturi qatlamlarni animatsiyalash nuqtai-nazaridan bir qancha afzalliklarga ega, jumladan Graph Editor (Grafik muharrir) sohasini keltirish mumkin. Graph Editor montaj stolida grafika xossalarini sozlash imkonini beradi. Ushbu soha qatlam xususiyatini ko‘rishning qulay va samarali usulini taqdim etadi va animatsiyalarni sozlashni osonlashtiradi.

Kengaytirilgan eksport - Windows operasion tizimi uchun Adobe Premiere Pro dasturi Adobe Media Encoder mexanizmini taqdim etadiki, u AVI, FLV, H.264, 264 Blu-Ray, MPEG2, MPEG2 Blu-Ray, MPEG2-DVD, MPEG4 formatlaridagi fayllarni eksport qilishni osonlashtiradi. Adobe Premiere Pro boshqa Adobe dasturlari bilan to‘liq bog‘lana olish imkoniga ham egadir.

Premier Pro dan boshqa yana bir qancha dasturlar videolar ustida ishlash imkonini beradi bular, DaVinci Resolve, Final Cut Pro, FilmoraPro, Shotcut, Camtasia Studio, KineMaster.

Bularning bari yordamida biz video darslar yaratishimiz mumkin. To‘g‘ri barcha dasturlarning o‘ziga hosligi va o‘z imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Lekin ularning orasida video darslar yaratishda eng ommobop bo‘lib hisoblangan dastur

bu Camtasia Studio dasturidir. Uning imkoniyatlari keng va interfeysi soddaligi bilan ko‘plab foydalanuvchilar tomonidan ma’qullangan.

Camtasia Studio dasturi – bu kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida biz ekrandagi jarayonlari oson tasvirga olishimiz, vebkameralar orqali videoga olishimiz, Power Point taqdimotlarini, hamda audio yozuvlarni yaratishimiz mumkin. Dastur videoni tahrirlash imkonini beradi: turli effektlar berish, to‘g‘rilash, ravshanlik, ularning o‘lchamlarini almashtirish, kerakli formatlarda saqlash va boshqalar.

Camtasia Studio – video darsliklar, taqdimotlar va boshqa shunga o‘xshash kuzatuvchilarga namoyish etiladigan materiallar yaratish uchun mo‘ljallangan. Camtasia Studio dasturida monitor ekranidagilarni video tasvirga olishdan tashqari videoni tahrirlash imkoniyati ham mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Saidiabzal, S. (2023). Comparative analysis of programming languages used in education. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 151-153.
2. Abduxakimovna, A. S., & Nasiba, K. (2023). Computer graphics as a means for forming professional competences. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 146-147.
3. Elmurzaevich, M. A. (2022, February). Use of cloud technologies in education. In Conference Zone (pp. 191-192).
4. Elmurzaevich-TSPU, M. O., & Rustamovich, A. J. (2019). The benefits of using information technology in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
5. Ilyich, M. E. (2023). Big data analysis in education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 74-76.
6. Muratov, E. I. (2020). Improving the quality of the educational system of higher educational institutions by means of the involvement of students in the

educational process with the use of analytical possibilities of neural network technologies. Theoretical & Applied Science, (9), 21-23.

7. Bagbekova, L. (2020). Distance education system as a new form of teaching. Theoretical & Applied Science, (9), 12-14.

8. Kadirbergenovna, B. L. (2022, February). Massive open online course basic requirements for digital educational resources. In Conference Zone (pp. 187-190).

9. Qizi, U. S. B. (2022). The role of video production in modern pedagogical technologies.

10. Хасанов, А. А., & Ўроқова, Ш. Б. Қ. (2021). Цифровизация образования на современном этапе развития информатизированного общества. Scientific progress, 2(1), 300-308.

11. Qizi, U. S. B. (2021). Digitization Of Education At The Present Stage Of Modern Development Of Information Society. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 95-103.

12. Бакиева, З. Р. (2022). Компьютерли анимацияни ўқитишнинг электрон таълим платформасини яратиш технологияси. Fizika Matematika va Informatika, 21(3), 177-181.

13. Бакиева, З. Р. (2022). Талабаларга компьютерли анимацияни ўқитишда анимация яратиш босқичлари. Digital technologies in innovative education problems and solutions, 1(1), 206-210.

## **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI TUSHUNCHASI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI**

*O'roqova Sharofat Bahodir qizi-Nizomiy  
nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari  
kafedراسи katta o'qituvchisi*

*Hamroqulov Nurbek Nabijonovich-  
Nizomiy nomidagi TDPU Axborot*